

## UZBEKISTAN IS ONE OF THE FOUNDERS OF THE CIS

Ahmadova Nafisa Ahmad qizi

2nd year doctoral student of QarSU.

Email: axmadovanafisa56@gmail.com

### Annotation

Relations between Uzbekistan and the CIS, mutual exchange, historical and cultural dialogue were covered and analyzed on the basis of sources. Agreements have been made in the economic, social, political and cultural, scientific and educational fields. Further long-term plans have been identified.

**Keywords:** diplomatic relations, international cooperation, declaration, summit, trade and economic, scientific and technical, health, transport, tourism, culture.

1991- yil 8-dekabrda Minskda uch slavyan respublikasi - Rossiya, Ukraina, Belarus rahbarlari-B.Yelsin, L.Kravchuk S.Shushkevichlarning uchrashuvi bo'ldi. O'sha kuni Belovejskoe Pushcheda uch davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH)ni tuzish to'g'risida Shartnoma imzoladilar. 1991- yil 21-dekabrda Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belarus (S.S hushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboyev), O'zbekiston (I.Karimov), Qirg'iziston (A.Akayev), Tojikiston (R.Nabiyev), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni 11 davlat boshliqlari Belovejskoye Pushche shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, "Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar" maqomida MDH muassisi bo'ldilar. Kengashda Almati Deklaratsiyasi qabul qilindi.

Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi:

- hamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi;
- MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas;
- Xalqaro strategik barqarorlikni va havfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiy-strategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;





- MDH ochiqdir, uning barcha a'zolari roziligi bilan sobiq SSSRning a'zolari va boshqa davlatlar ham unga qo'shilishi mumkin;
- umumiy iqtisodiy makonni, umumiy bozorni vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi;
- MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to'xtatiladi;
- Hamdo'stlik qatnashchilari o'z Konstitutsiyalaridagi tartib, qoidalarga binoan sobiq SSSR ning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan xalqaro majburiyatlarini bajarilishiga kafolat beradilar;
- MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og'ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

MDH kengashlarini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhini tuzish to'g'risida protokol imzolandi. Shu tariqa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil topdi. 1993- yil yanvarda Minskda MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda MDHning Nizomi imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish jarayoni yakunlandi.

1995-yil 25-26-may kunlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov MDH ga a'zo davlat boshliqlari bilan navbatdagi uchrashuvga qatnashish uchun Minskka keldi. 26-may kuni MDH ga a'zo mamlakatlar davlat rahbarlarining Kengashi bo'lib o'tdi.

Istiqlol yillarida O'zbekiston o'zining qat'iy mustaqil taraqqiyot yo'lidan borish, o'zgalarga tahdid qilmaslik, boshqalar suverenitetini hurmat qilish bilan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga o'zining munosib va qat'iy nuqtai nazariga ega bo'ldi. Bu quyidagilarda namoyon bo'ldi.

Birinchidan, O'zbekiston avval boshdan MDH tarafdori bo'lib chiqdi. Chunki sobiq Ittifoq davridagi respublikalararo an'anaviy munosabatlar yangi vaziyatga mos ravishda davom ettirilishi kerak edi.

Ikkinchidan, bunday hamdo'stlik mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlab, bu davlatlarning siyosiy mustaqilligiga daxl qilmasligi lozim. Uchinchidan, O'zbekiston MDHga a'zo davlatlar bilan o'zaro ikki taraf uchun ham foydali hamkorlik qilishga hamisha tayyor va o'z tashqi siyosatida shunga intilib kelyapti. MDH ga a'zo ko'p mamlakatlar bilan ana shunday hamkorlikda ish olib borilyapti.

2001- yil 29-30-noyabr kunlari Moskvada MDH tashkil etilgan kunning 10 yilligiga bag'ishlangan yubiley sammiti bo'lib o'tdi. Sammit qatnashchilari Afg'onistondagi voqealar to'g'risida bayonot qabul qildilar. Bayonotda aksilterror operatsiyasi ijobiy baholandi. Yubiley sammitida yana bir hujjat - MDH tuzilganining 10 yilligi munosabati bilan Bayonot imzolandi. Bayonotda



10 yil davomida rejalashtirilgan hamma tadbirlar ham amalga oshmagani ta'kidlandi. Hamdo'stlik barcha a'zo mamlakatlar xalqlari farovonligini oshirish yo'lida salohiyatga ega ekanligi, undan foydalanish zarurati e'tirof etildi.

2013-yil 28-oktabr kuni MDH davlat rahbarlari kengashining tor doiradagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov nutq so'zladi.

“Hamdo'stlik unga a'zo davlatlarning izchil rivojlanishi, barqarorligi va xavfsizligiga raxna solishi mumkin bo'lgan tahdid va xavflarga o'z vaqtida, munosib javob qaytarish, bahs va nizolarni hal etishga qaratilgan, pirovard natijada sobiq ittifoq hududida fuqarolarning o'zaro muloqot qilishi uchun maqbul yondashuv va muvofiqlashtirilgan amaliy choratadbirlarni ishlab chiqish borasida keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Bugun tobora avj olayotgan radikalizm, terrorizm va jangari ekstremizm mafkurasi nafaqat bir mamlakat yoki muayyan mintaqada keng tarqalayotgani, balki ushbu jarayon milliy chegara bilmasligi haqida gapirishning hojati yo'q. Aynan shu sababli MDHga a'zo davlatlar hududida har qanday ko'rinish va shakldagi terrorizm va ekstremizmga yo'l qo'ymaslik muhitini shakllantirish, ushbu xavfli tahdidlarning paydo bo'lishi va tarqalishiga ko'maklashadigan sabab va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish uchun birgalikda harakat qilish zarur.

Bugungi sammitda jinoyatchilik va terrorizm, narkotik vositalarning noqonuniy aylanishiga qarshi hamkorlikda kurashish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi, shuningdek, Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlik konsepsiyasining qabul qilinishi Hamdo'stlikka a'zo barcha davlatlarning uzoq muddatli xavfsizlik manfaatlariga mos keladi” - dedi I.Karimov.

2013-yil may oyida Minskda bo'lib o'tgan MDH davlatlari yig'ilishida barcha 11 mamlakat Hukumat rahbarlari vakillari qatnashdilar. 30 dan ortiq hujjat, asosan, tomonlar va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida “Erkin savdo zonasi” to'g'risidagi bitimni qo'llash to'g'risidagi protokol imzolandi. Natijada, O'zbekiston MDH tarkibidagi erkin savdo zonasining to'qqizinchi a'zosi bo'ldi. Shartnomada uni imzolagan davlatlar, bojxona to'lovlari, soliqlar va yig'imlarni bekor qilish, shuningdek o'zaro savdoda miqdoriy cheklovlar nazarda tutilgan edi, shu bilan birga har bir ishtirokchi mamlakat uchinchi davlatlarga nisbatan savdo rejimini mustaqil va mustaqil ravishda belgilash huquqini saqlab qoldi. Ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida bojxona chegaralari



va ularning davlat chegaralarini kesib o'tadigan tovarlarning kelib chiqishini nazorat qiluvchi postlar saqlanib qolindi.

2014-yil 9-10-oktabr kunlari Belorusiya poytaxtida MDH ga a'zo davlatlar Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Hamdo'stlik doirasidagi hamkorlikni rivojlantirishning dolzarb masalalari, shu jumladan, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishini nazorat qilish bo'yicha hamkorlik, noqonuniy migratsiya va odam savdosiga qarshi kurash hujjatlari loyihalari muhokama qilindi. 2016-yilni MDH da Ta'lim yili deb e'lon qilishga qaror qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 11-oktabr kuni Moskva shahrida bo'lib o'tgan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashi majlisida nutqi so'zladi. Prezidentimiz o'z nutqlarida quyidagilarga to'xtalib o'tdi.

**Birinchidan.** Biz Hamdo'stlik makonida hech qanday istisno va cheklovlersiz tez fursatda **to'laqonli erkin savdo hududini shakllantirishning** tarafdorimiz.

Yil boshidan buyon O'zbekiston va MDH mamlakatlari o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi 20 foizdan ziyod oshganini ta'kidlamoqchiman.

O'zbekiston MDHga a'zo mamlakatlar bilan savdo, investitsiya, innovatsiya va moliya sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdor. Biz venchur loyihalar va iqtisodiy zonalarni birgalikda rivojlantirishga tayyormiz.

**Ikkinchidan. Transport va kommunikatsiyalar** sohasi, MDH makonida samarali integratsiyalashgan transport tizimini rivojlantirish, mintaqamizning ulkan tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish strategik muhim yo'nalishdir.

**Uchinchidan.** Amaliy **ilmiy-texnik hamkorlik va ta'lim sohasidagi almashinuvni** kengaytirishga hamkorlikdagi harakatlarimizning ustuvor yo'nalishi sifatida qaraymiz.

**To'rtinchidan. Turizm** sohasida katta istiqbollar mavjud. Fikrimizcha, bizdagi keng imkoniyatlar va ulkan turizm salohiyati, afsuski, haligacha to'liq ishga solinmagan.

**Beshinchidan.** Biz **harbiy-texnik sohadagi** kooperatsiya darajasini oshirish, mamlakatlarimiz o'rtasidagi mavjud shartnoma va bitimlar doirasida qo'shma dastur va loyihalar ishlab chiqishdan manfaatdormiz.

**Oltinchidan.** Barcha bunyodkorlik rejalarimizni faqat tinchlik va barqarorlik sharoitida, xavfsizlikka tahdid soluvchi zamonaviy xavf-xatarlarga o'z



vaqtida javob qaytarish orqali ro'yobga chiqarish mumkinligi ayon haqiqatdir.

Shu munosabat bilan jinoyatchilik, terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va odam savdosiga qarshi murossasiz kurashish sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar yo'nalishidagi hamkorlik muhim amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Rossiya, Markaziy Osiyo mamlakatlari va MDHning boshqa davlatlari bilan hamkorlikda Afg'oniston muammosini siyosiy yo'l bilan hal qilish bo'yicha ko'maklashishga tayyorligini bildiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 18-dekabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining videoanjuman shaklidagi majlisi bo'lib o'tdi.

Hamdo'stlik doirasida "yashil" va soddalashtirilgan yo'laklar amaliyotini keng joriy etish, elektron savdoni rivojlantirish bo'yicha yagona platformani ishga tushirish va "yo'l xaritasi"ni qabul qilish muhimligi qayd etildi.

Davlatimiz rahbari sanoat kooperatsiyasi bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish zarurligini qayd etdi.

Bugungi kunda sanitariya-epidemiologik tusdagi favqulodda vaziyatlarni monitoring qilish va ularga barvaqt javob qaytarishning samarali tizimini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan MDH doirasidagi tegishli kelishuvni tayyorlash ishlari tezlashtiriladi.

Kasalliklarni profilaktika qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida har yili ommaviy sport va madaniy tadbirlarni tashkil etgan holda "MDH salomatlik marafoni"ni o'tkazish taklif etildi.

MDH ijodiy va fan ziyolilarining navbatdagi forumi doirasida O'zbekistonda "Hamdo'stlik mamlakatlari madaniy merosi" konferensiyasini o'tkazish g'oyasi ilgari surildi. Bu an'anaviy yaqin bo'lgan gumanitar aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

MDH makonidagi xavfsizlikka tahdid solayotgan xatarlar to'g'risida so'z yuritilar ekan, Afg'onistonda yo'lga qo'yilayotgan tinchlik jarayonini har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim ekani qayd etildi.

Majlisda MDHni yanada rivojlantirish konsepsiyasi hamda uni amalga oshirish bo'yicha asosiy tadbirlar rejasi, BMT tashkil etilganining 75 yilligi munosabati bilan hamda xalqaro axborot xavfsizligini ta'minlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida qo'shma bayonotlar qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va MDH o'rtasidagi hamkorlik bugungi kunga kelib nihoyatda rivojlanib bormoqda. O'zbekistonning MDH ga a'zo



mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, madaniy, fan-ta'lim sohalaridagi hamkorligi rivojlanmoqda. O'zbekiston va MDH o'rtasida har tomonlama aloqalar yo'lga qo'yilmoqda, istiqbolli rejalar tuzilmoqda va amalga oshirilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" T, "O'zbekiston" 2018. 2-tom, 329-330 b.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston erishgan yutuq va marralar- biz tanlagan islohotlar yo'lining tasdig'idir" 22-tom. T. "O'zbekiston" 2015. 34-35-b.
3. Jo'rayev N. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – T.: "Sharq", 2000.- 532-533 b.
4. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova " O'zbekiston tarixi" T: "Iqtisod-moliya" 2006-y, 464-465-b.
5. M.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров " Очерки новейшей истории Узбекистана", Т. "Адабиёт учкунлари" 2016. 356 б.
6. [http://mfa.uz/ru/press/news/2014/10/2587/\(15.10.2014\)](http://mfa.uz/ru/press/news/2014/10/2587/(15.10.2014)).
7. [https://uzsm.uz/uz/press\\_center/uzb\\_news/](https://uzsm.uz/uz/press_center/uzb_news/)